

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
**TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH
MILLIY AGENTLIGI**



**TA'LIM DASTURINI
MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O'TKAZISH BO'YICHA
YAKUNIY HISOBOT**



**XALQARO TURIZM AKADEMIYASI
SAMARQAND KAMPUSI**

Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish ta'lim tashkiloti

9101009 – Tur operatorlik: turistlarni qabul qilish
Malaka oshirish

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI**


9101009 – Tur operatorlik: turistlarni qabul qilish

**TA'LIM DASTURINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN
O'TKAZISH BO'YICHA YAKUNIY HISOBOT**

**"XALQARO TURIZM AKADEMIYASI SAMARQAND KAMPUSI"
DAVLAT MUASSASASI**

(Ekspert komissiyasi xulosasi asosida)

EKSPERT KOMISSIYASI TARKIBI



Rais: SOBIROV AZIZBEK AVAZBEKOVICH

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

falsafa doktori (PhD), dotsent



A'zo: RONG HUANG

University of Plymouth

falsafa doktori (PhD), professor

1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

Ariza raqami	MAM260001
Xulosa raqami	1311
Xulosa sanasi	06.07.2026
Ta'lim tashkilotining to'liq nomi	"XALQARO TURIZM AKADEMIYASI SAMARQAND KAMPUSI" DAVLAT MUASSASASI
Tashkilot manzili, litsenziya / identifikatsiya ma'lumotlari	Samarqand viloyati, Samarqand shahri, Bobur Mirzo ko'chasi, 3"A"-uy. Litsenziya: № 2467498, 20.05.2025. Guvohnoma: MAS № 0000433, 23.07.2026.
Baholangan ta'lim dasturi nomi	Tur operatorlik: turistlarni qabul qilish
Yo'nalish / mutaxassislik kodi	9101009
Akkreditatsiya usuli	masofaviy / joyiga chiqib

2. HUQUQIY ASOSLAR

Xulosa tayyorlanishiga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjat:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida" 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom.

Maxsus davlat akkreditatsiyasi:

O'rta maxsus, kasbiy, oliy ta'limni va oliy ta'limdan keyingi ta'limni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayoni boshlanishidan oldin amalga oshiriladigan jarayon.

3. TA'LIM DASTURINING UMUMIY TAVSIFI

1. Ta'lim tashkilotining litsenziya/guvohnomasi: <i>License/Certificate of Educational Institution:</i>	№ 2467498, 20.05.2025
2. Ta'lim tashkilotining turi: <i>Type of Educational Institution:</i>	Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish ta'lim tashkiloti
3. Ta'lim dasturi kodi va nomi: <i>Code and Name of Study Programme:</i>	9101009 – Tur operatorlik: turistlarni qabul qilish
4. Ta'lim dasturining ingliz tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in English:</i>	9101009 – Tour Operator Activities: Inbound Tourist Services
5. Ta'lim dasturining rus tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in Russian:</i>	9101009 – Туроператорская деятельность: приём туристов (въездной туризм)
6. Hamkorlikda amalga oshirilishi: <i>Offered in Cooperation with:</i>	—
7. Ta'lim tili: <i>Medium of Instruction:</i>	o'zbek, rus, ingliz
8. Ta'lim shakli: <i>Mode of Study:</i>	kunduzgi
9. Ta'lim dasturi hajmi: <i>Study Programme Credits:</i>	72 soat
10. Ta'lim dasturi davomiyligi: <i>Duration of Study Programme:</i>	4 hafta
11. Milliy malaka ramkasidagi darajasi: <i>Level in National Qualifications Framework:</i>	4-daraja
12. Kvalifikatsiya(lar) nomi: <i>Qualification Title:</i>	—
13. Qo'shimcha beriladigan kvalifikatsiyalar: <i>Additional Qualifications Awarded:</i>	—
14. Ta'lim dasturi yakunida beriladigan hujjat turi: <i>Type of Document Issued Upon Completion:</i>	Sertifikat
15. Ta'lim oluvchilarning me'yoriy miqdori (to'liq davr): <i>Maximum Number of Students (full period):</i>	150 nafar
16. Ta'lim dasturini o'qitish manzili: <i>Address Where the Study Programme is Delivered:</i>	Samarqand viloyati, Samarqand shahri, Bobur Mirzo ko'chasi, 3"A"-uy

4. BAHOLASH YO'NALISHLARI VA MEZONLAR BO'YICHA NATIJALAR

Har bir yo'nalish bo'yicha baho (muvofoq / muvofoq emas) va har bir mezon bo'yicha baho (muvofoq / qisman muvofoq / muvofoq emas) deb baholanadi.

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
1.	Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash	Muvofiq
1.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi;</i>	Muvofiq
1.2.	<i>ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha 3 yillik istiqbolli rejaning (bundan buyon matnda istiqbolli reja deb yuritiladi) mavjudligi;</i>	Muvofiq
1.3.	<i>ta'lim dasturi doirasida sifatni ichki ta'minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta'minlangani;</i>	Muvofiq
1.4.	<i>mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlarini aniqlash bo'yicha monitoring tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
2.	Ta'lim dasturlari	Muvofiq
2.1.	<i>manfaatdor tomonlar ishtirokida ta'lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani. Bunda ta'lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, mehnat bozori, davlat ta'lim talabi va milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiqligi;</i>	Muvofiq
2.2.	<i>ta'lim dasturining milliy ta'lim tizimidagi ustuvor yo'nalishlar va xalqaro standartlar asosida ishlab chiqilgani;</i>	Muvofiq
2.3.	<i>ta'lim dasturining davomiyligi, modullarning uzviyligi va uzluksizligi ta'minlangani;</i>	Muvofiq
2.4.	<i>ta'lim mazmunining zamonaviy andragogik yondashuvlarga mosligi, modullar muammoli keyslar asosida shakllantirilgani;</i>	Muvofiq
3.	O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash	Muvofiq
3.1.	<i>o'quv jarayonining ta'lim dasturida belgilangan o'quv natijalariga erishishga yo'naltirilgani va malaka oshirishning muqobil shakllarining yo'lga qo'yilgani;</i>	Muvofiq
3.2.	<i>o'quv jarayonining to'g'ri tashkil etilgani, uning doimiy baholab borilishi va takomillashtirishga qaratilgani;</i>	Muvofiq
3.4.	<i>tinglovchilarning kirish va chiqish testlari, baholash natijalari bo'yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi;</i>	Muvofiq
3.5.	<i>ta'lim dasturida akademik halollik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali tizimning mavjudligi;</i>	Muvofiq
4.	Tinglovchilar faoliyati	Muvofiq

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
4.1.	<i>ta'lim dasturi bo'yicha qabul talablari aniq belgilangani, o'qishga qabul qilish shaffof tarzda yo'lga qo'yilgani;</i>	Muvofiq
4.2.	<i>malaka oshirish reja-grafigi ta'lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi hamda ta'lim dasturlarini samarali amalga oshirish uchun yetariligi;</i>	Muvofiq
4.3.	<i>tinglovchilarni qo'llab-quvvatlash va ularga maslahat berish mexanizmlarining mavjudligi;</i>	Muvofiq
5.	Inson resurslari	Muvofiq
5.1.	<i>ta'lim dasturi uchun belgilangan me'yorlarga muvofiq pedagog kadrlar, shuningdek, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar mavjudligi hamda ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga mosligi;</i>	Muvofiq
5.3.	<i>yangi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejadagi modullarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejaning mavjudligi;</i>	Muvofiq
5.4.	<i>amaliyotchi hamda xorijiy mutaxassislarni jalb qilish imkoniyatlarining mavjudligi;</i>	Muvofiq
5.5.	<i>kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgani, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
5.6.	<i>xorijda malaka oshirgan professor-o'qituvchilarning o'quv jarayoniga jalb qilingani;</i>	Muvofiq
6.	Moddiy-texnik ta'minot	Muvofiq
6.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini bajarish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalarning mavjudligi hamda metodik qo'llanma (ko'rsatma)lar bilan ta'minlangani;</i>	Muvofiq
6.2.	<i>modullar kesimida o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar, elektron ta'lim resurslari bilan belgilangan talablarga muvofiq ta'minlangani;</i>	Muvofiq
6.3.	<i>o'quv va laboratoriya xonalari hamda ustaxona (poligon)larning tinglovchilar sonidan kelib chiqib, ta'lim dasturlariga mos jihozlar va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlangani hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilingani;</i>	Muvofiq
6.4.	<i>inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani;</i>	Muvofiq
6.5.	<i>axborot-resurs markazining (kutubxonaning) (bundan buyon matnda ARM deb yuritiladi) ta'lim dasturlariga mos o'quv</i>	Muvofiq

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
	<i>adabiyotlari, kompyuterlar bilan ta'minlangani, o'quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi;</i>	
6.6.	<i>raqamli ta'lim muhiti yaratilgani (LMS, wi-fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta'lim imkoniyatlari);</i>	Muvofiq

5. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA XULOSALAR

1-bob. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi

1-bob bo'yicha ekspert komissiyasi taqdim etilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar, ichki tartiblar, istiqbolli rivojlanish rejasi hamda sifatni ta'minlash tizimiga oid materiallarni tahlil qilib, 9101009 – "Tur operatorlik: turistlarni qabul qilish" malaka oshirish kursi dasturini amalga oshirish uchun mas'ul tarkibiy tuzilma tashkil etilganini, uning vakolat va vazifalari aniq belgilanganini hamda zarur moddiy-texnik, moliyaviy va inson resurslari bilan ta'minlash rejalari ishlab chiqilganini aniqladi. Ta'lim tashkilotining 2026–2028-yillarga mo'ljallangan istiqbolli rivojlanish rejasi missiya va strategik maqsadlarga muvofiq tuzilgan bo'lib, unda maqsadlar, vazifalar, moliyaviy manbalar, mas'ul ijrochilar va muddatlar aniq belgilangan; ichki monitoring joriy, choraklik, yarim yillik va yillik davriylikda KPI ko'rsatkichlari asosida yuritiladi. Ekspert komissiyasi ayrim kamchiliklarning bevosita tashrif davomida ko'rib, qisqa muddatda bartaraf etilganini muassasaning qayta aloqaga tezkor javob qaytarish qobiliyati sifatida ijobiy baholaydi; monitoring hisobotlarini standartlashtirishni izchil davom ettirish tavsiya etiladi. Shu asosda ekspert komissiyasi tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishini muvofiq deb topadi.

2-bob. Ta'lim dasturlari yo'nalishi

2-bob bo'yicha ekspert komissiyasi 9101009 – "Tur operatorlik: turistlarni qabul qilish" ta'lim dasturi, o'quv rejalari, fan (modul) dasturlari, malaka talablari, ishchi guruh hujjatlari va ekspert xulosalarini kompleks tahlil qilib, dastur ish beruvchilar, soha mutaxassislari va pedagoglar ishtirokida ishlab chiqilganini hamda belgilangan tartibda tasdiqlanganini aniqladi. Dastur maqsadi, o'qitish natijalari va kasbiy kompetensiyalar Davlat ta'lim talablari, Milliy malakalar ramkasi, kasbiy standartlar hamda mehnat bozori ehtiyojlariga mos belgilangan; mazmun milliy ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlari, Barqaror rivojlanish maqsadlari va turizm sohasini

rivojlantirish bo'yicha davlat siyosati bilan uyg'unlashtirilgan bo'lib, xalqaro amaliyotlarga muvofiqligi xorijiy va mahalliy ekspertlarning rasmiy xulosalari bilan tasdiqlangan. Modular kompetensiyaviy hamda katta yoshdagi tinglovchilarning ehtiyoji va kasbiy tajribasini hisobga oluvchi andragogik yondashuv asosida, real kasbiy vaziyatlar va muammoli keys-topshiriqlarga tayangan holda shakllantirilgan. Ekspert komissiyasi kiruvchi turizmga destinatsiya xizmatlarini rejalashtirish va turistlarni qabul qilish jarayonlarini boshqarish ko'nikmalarining uyg'unligi hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ta'kidlaydi. Shu asosda ekspert komissiyasi ta'lim dasturi mazmuni yo'nalishini muvofiq deb topadi.

3-bob. O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash yo'nalishi

3-bob bo'yicha ekspert komissiyasi o'quv rejalari, ishchi o'quv rejalari, fan (modul) dasturlari, dars jadvallari, baholash vositalari va test savollari bankini tahlil qilib, o'quv jarayoni Davlat ta'lim talablari, Milliy malakalar ramkasi hamda dasturning maqsad va kutilayotgan o'quv natijalariga muvofiq tashkil etilganini aniqladi. Malaka oshirishning muqobil shakllari — masofaviy va aralash ta'lim — bo'yicha metodik materiallar ishlab chiqilgan; tinglovchilarning kirish va chiqish testlari hamda fikr-mulohazalarini yig'ish, tahlil qilish va natijalar asosida takomillashtirish mexanizmi joriy etilgan. Akademik halollik bo'yicha nizomlar, antiplagiat yo'riqnomalari va akademik halollik komissiyasi faoliyati uchun zarur asoslar yaratilgan. Ekspert komissiyasi qabul jarayonlarini modellashtiruvchi amaliy keys-topshiriqlar ulushini kasbiy tayyorgarlikning asosiy sharti deb hisoblaydi. Shu asosda ekspert komissiyasi o'quv jarayoni va baholash tizimini muvofiq deb topadi.

4-bob. Tinglovchilar faoliyati yo'nalishi

4-bob bo'yicha ekspert komissiyasi tinglovchilar kontingentini shakllantirish, qabul jarayonlari, malaka oshirish reja-grafigi hamda tinglovchilarni qo'llab-quvvatlash tizimiga oid hujjatlarni tahlil qilib, qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslariga qabulning shaffof va tizimli mexanizmi ishlab chiqilganini aniqladi. Kontingent mehnat bozori ehtiyojlari, muassasa missiyasi, mavjud infratuzilma va pedagog salohiyati bilan uyg'unlashtirilgan; qabul parametrlari ta'lim sifatini ta'minlash imkoniyatlaridan kelib chiqib belgilangan. Elektron ariza topshirish, LMS platformasi va elektron hujjat aylanishini joriy etish uchun tashkiliy-texnologik asoslar yaratilgan. Ekspert komissiyasi muassasa yangi faoliyat boshlagani sababli ayrim raqamli tizimlar bo'yicha amaliy statistik ma'lumotlar hali shakllanmaganini qayd etadi va

ularni dastlabki o'quv davrlaridanoq tizimli to'plab borishni tavsiya etadi. Shu asosda ekspert komissiyasi tinglovchilar faoliyati yo'nalishini muvofiq deb topadi.

5-bob. Inson resurslari yo'nalishi

5-bob bo'yicha ekspert komissiyasi inson resurslarini boshqarish, pedagog va boshqaruv kadrlarini shakllantirish, malaka oshirish va rag'batlantirishga oid hujjatlarni tahlil qilib, kadrlar soni, malakasi va kasbiy kompetensiyalari ta'lim dasturi talablari hamda tinglovchilar kontingentiga mos rejalashtirilganini aniqladi. Pedagoglarning mutaxassisligi o'qitiladigan modullar mazmuniga mos bo'lib, kasbiy va pedagogik tajribasi diplomlar, sertifikatlar va tasdiqlovchi hujjatlar bilan asoslangan; amaliyotchi hamda xorijiy mutaxassislarni jalb etish imkoniyatlari yaratilgan. Xorijda malaka oshirgan pedagoglar bo'yicha ma'lumotlar bazasi shakllantirilgani xalqaro tajribani o'quv jarayoniga olib kirish uchun asos yaratadi. Ekspert komissiyasi turizm yo'nalishidagi kurslarda amaliyotchi mutaxassislarning ulushi ta'lim sifatini bevosita belgilashini ta'kidlaydi va soha korxonalari vakillarini o'qituvchilikka izchil jalb etishni tavsiya etadi. Shu asosda ekspert komissiyasi inson resurslari yo'nalishini muvofiq deb topadi.

6-bob. Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi

6-bob bo'yicha ekspert komissiyasi ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur moddiy-texnik baza, o'quv va amaliy mashg'ulot xonalari, Axborot-resurs markazi hamda raqamli ta'lim muhiti shakllantirilganini aniqladi. Auditoriyalar, axborot-kommunikatsiya vositalari, internet va Wi-Fi tarmog'i, LMS platformasi, elektron kutubxona hamda xalqaro ilmiy ma'lumotlar bazalaridan foydalanish imkoniyatlari tinglovchilar ehtiyojiga mos tashkil etilgan; masofaviy ta'limni texnik qo'llab-quvvatlash tizimi yo'lga qo'yilgan. Ekspert komissiyasi mahalliy destinatsiya obyektlari bilan amaliy hamkorlik imkoniyatini amaliy tayyorgarlik uchun muhim omil deb hisoblaydi. Shu bilan birga, o'quv jihozlarining tinglovchilar soniga yetarliligini tasdiqlovchi miqdoriy ma'lumotlarni kengaytirish, amaliyot bo'yicha hamkorlik shartnomalarini to'liq rasmiylashtirish, xavfsizlik jurnallarini muntazam yuritish, inklyuziv infratuzilmani rivojlantirish hamda LMS baholash-monitoring funksiyalari bo'yicha analitik hisobotlarni tizimli shakllantirish tavsiya etiladi. Shu asosda ekspert komissiyasi moddiy-texnik ta'minot yo'nalishini muvofiq deb topadi.

6. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA ANIQLANGAN KAMCHILIKLAR VA NOMUVOFIQLIKLAR

Jiddiy kamchiliklar (akkreditatsiyaga to'sqinlik qiluvchi):

Ta'lim dasturini yo'lga qo'yish uchun to'sqinlik qiladigan jiddiy kamchiliklar aniqlanmadi

Bartaraf etilishi lozim bo'lgan juz'iy kamchiliklar:

- ✓ O'quv jihozlarning tinglovchilar soniga yetarliligini tasdiqlovchi miqdoriy ma'lumotlar bazasi kengaytirilishi zarur.
- ✓ Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha hamkorlik shartnomalarining bir qismi to'liq rasmiylashtirilishi lozim.
- ✓ Muassasa yangi faoliyat boshlagani sababli ayrim raqamli tizimlar bo'yicha amaliy statistik ma'lumotlar hali shakllanmagan.

7. TA'LIM DASTURINI SIFATLI TASHKIL ETISH BO'YICHA TAVSIYALAR

- ✓ O'quv jihozlari yetarliligi bo'yicha miqdoriy ma'lumotlar bazasini kengaytirish va yangilab borish.
- ✓ Amaliyot bo'yicha barcha hamkorlik shartnomalarini to'liq rasmiylashtirish hamda xavfsizlik jurnallarini muntazam yuritish.
- ✓ LMS platformasining baholash va monitoring funksiyalari bo'yicha analitik hisobotlarni tizimli shakllantirish.
- ✓ Inklyuziv ta'lim infratuzilmasini bosqichma-bosqich rivojlantirish.

8. TA'LIM DASTURI BO'YICHA YAKUNIY XULOSA

Baholash natijalariga ko'ra, "XALQARO TURIZM AKADEMIYASI SAMARQAND KAMPUSI" DAVLAT MUASSASASI da 9101009 – "Tur operatorlik: turistlarni qabul qilish" malaka oshirish ta'lim dasturi bo'yicha taqdim etilgan hujjatlar, o'quv-uslubiy materiallar, tashkiliy-boshqaruv mexanizmlari, kadrlar salohiyati hamda moddiy-texnik baza kompleks tahlil qilindi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, mas'ul tarkibiy tuzilma tashkil etilib 2026–2028-yillarga mo'ljallangan istiqbolli reja va KPI asosidagi ichki monitoring tizimi joriy etilgan, dastur ish beruvchilar ishtirokida Davlat ta'lim talablari, Milliy malakalar ramkasi va mehnat bozori ehtiyojlariga muvofiq ishlab chiqilib xalqaro amaliyotlarga muvofiqligi ekspert xulosalari bilan tasdiqlangan, o'quv jarayoni kirish-chiqish testlari va qayta aloqa mexanizmlari bilan ta'minlangan, tinglovchilarni qabul qilishning shaffof tizimi va LMS platformasi yaratilgan, pedagog kadrlar mutaxassisligi modullarga mos va hujjatlar bilan asoslangan hamda mahalliy destinatsiya obyektlari bilan amaliy hamkorlik imkoniyati mavjud. Barcha yo'nalishlar (6 bob) va 26 ta mezonning barchasi muvofiq deb topildi. Aniqlangan ayrim jihatlar dasturni amalga oshirishga to'sqinlik qilmaydigan, asosan takomillashtirishga qaratilgan tavsiyaviy xarakterga ega. Umuman olganda, ta'lim

dasturi belgilangan akkreditatsiya mezonlariga mos keladi. Ekspert komissiyasi tomonidan ta'lim dasturi MUVOFIQ deb baholandi.

9. TA'LIM DASTURI BO'YICHA AKKREDITATSIYA KOMISSIYASI QARORI

Akkreditatsiya komissiyasi qarori sanasi:	20.07.2026
Akkreditatsiya komissiyasi bayon soni:	5-son
Yakuniy qaror:	AKKREDITATSIYADAN O'TDI



+998 55 505 30 30



info@nqaae.uz
www.nqaae.uz



@nqaaeuz



@nqaaeuzbot

